## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

#### O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

#### SHODIYEV JAHONGIR JO'RAQULOVICH

INSON QADRI FENOMENI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

# Falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

## Оглавление автореферата диссертации доктора философии (DSc) по философским наукам

# Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (DSc) on philosophical sciences

Shodiyev Jahongir Joʻraqulovich Inson qadri fenomeni: ijtimoiy-falsafiy tahlil5
Шодиев Жахонгир Журакулович
Феномен человеческого достоинства: социально-философский анализ33
Shodiyev Jahongir Jurakulovich The phenomenon of human value: a socio-philosophical analysis67
E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works73

## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

#### O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

## SHODIYEV JAHONGIR JO'RAQULOVICH

INSON QADRI FENOMENI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Fal242 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining vebsahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xuseynova Abira Amanovna falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maksuda Sultonovna falsafa fanlari doktori, professor

Nazarov Qiyom Normirzayevich falsafa fanlari doktori, professor

**Teshayev Nutfullo Nasrulloyevich** falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" Ortyabr soat 90° dagi majlisida boʻlib oʻtadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol koʻchasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27; e-mail: buxdu rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (727-raqam bilan roʻyxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol koʻchasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365) 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" sentyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "<u>26</u>" <u>sentyabo</u> dagi <u>35</u> raqamli reyestr bayonnomasi.)

Namozov B.B.

Riniy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
a lanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmii darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

#### KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson moddiy va ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlar ong, turmush tarzi, garashlarda oʻzgarishlar hosil gilib, transsendental inson, uning qadri, insonparvarlik, bagʻrikenglik va ularning oʻzaro mutanosibligiga salbiy ta'sir oʻtkazmoqda. Inson farovonligi va qadri ustuvor boʻlgan adolatli jamiyatda har doim kam ta'minlanganlar, ko'p bolali oilalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar kabi himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga oid islohotlar olib borilib, davlat o'z siyosatida ularning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini ta'minlashni eng ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shuning uchun insonning fenomenal-strukturaviy komponentlari, falsafiy-antropologik konsepsivalari asosida insoniylik va ijtimoiy birdamlik mustahkamlangan "hech kim e'tibordan chetda qolmaydigan" tamoyilning ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida inson qadri masalasi zamonaviy yoʻnalishlarda nafaqat falsafiy konsepsiya, balki huquqiy, siyosiy va ma'naviy qadriyat sifatida, turli davr va makonlarda turlicha yondashuvlarda tadqiq etilmoqda. Gʻarb tafakkurida "inson maqsad sifatida" gʻoyasi inson qadrining nazariy asosi boʻlsa, Sharq tafakkurida "komil inson" konsepsiyasi ijtimoiy adolat, barqaror rivojlanish, inson kapitalini oshirish, farovonlik va tenglik kabi tamoyillar asosi boʻlib xizmat qilmoqda. Shu bois inson qadri masalasini ilmiy diskursda tahlil etish, uning mezonlari va transformatsiyasi muammolarini, inson qadri bilan bogʻliq transsendental voqeliklar neometafizikaning spiritualistik xususiyatlari bilan aksiologik komponentning dialektik munosabatlari prizmasi orqali tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini oshirish davlat siyosatining markaziy yoʻnalishiga aylanib, ijtimoiy adolatni ta'minlash, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlash, munosib turmush darajasini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, uning huquqiy, ijtimoiy ta'lim va sog'liqni saqlash, iqtisodiy sohalarida islohotlar olib borilmoqda. ""Hech kimni unutmaslik va ortda qoldirmaslik" tamoyilini hayotga izchil tatbiq etishning ham ahamiyati beqiyos. Insonning qadruning huquqlari, ayniqsa, rivojlanish huquqini hurmat qilish, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish g'oyasi - barcha BRMlarni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy xalqa hisoblanib, ularning uygʻunligini ta'minlashga, bir-birini toʻldirishi, mustahkamlashiga xizmat qiladi. Shubhasiz, ushbu maqsadlarga tinch, adolatli, har qanday ijtimoiy toʻsiqlardan xoli, inklyuziv va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, hokimiyat organlarining barcha bo'g'inlarida samarali boshqaruv, oshkoralik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish orqali erishish mumkin". Shu nuqtayi nazardan inson qadri va insoniylik uygʻunlashuvini, gumanistik gʻoyalar vositasida yoshlarni ilm olish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish hamda barkamollik ruhida tarbiyalashning permanent ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

\_

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "O'zbekiston", 2024. - Б.11-12.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ""O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida", 2023-yil 8-maydagi PF-67-son "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida" farmonlari, 2019-yil 13-dekabrdagi PQ-4551-son "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18sentabrdagi 588-son "2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" nomli ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

### Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.

Inson qadri bugungi zamonaviy falsafiy va ijtimoiy fanlar doirasida eng dolzarb masalalardan biri sifatida koʻrib chiqilmoqda. Uning mohiyati, ijtimoiyaksiologik mazmuni va rivojlanish qonuniyatlari jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va muassasalari tomonidan keng qamrovda tadqiq etilmoqda. Shu inson qadri konsepsiyasining nazariy asoslari, uning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni hamda aksiologiya fanidagi alohida ahamiyati tobora chuqurroq tahlil qilinmoqda. Xususan, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar tizimiga oid ilmiy izlanishlar Frankfurt School of Finance & Management, Berlin School of Economics and Law Schöneberg Campus (Germaniya), Cambridge, Manchester, Oxford universitetlari (Buyuk Britaniya), Massachusetts texnologiya instituti (AQSh), Indiana universiteti (Hindiston), Kyoto universiteti (Yaponiya), Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya), Moskva (Rossiya), Al-Farobiy nomidagi Milliy universiteti universiteti (Qozog'iston), O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston) da olib borilmogda

-

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi https://www.brookings.edu/; https://www.bu.edu/; https://cgt.columbia.edu/; https://carnegieendowment.org/; https://www.wilsoncenter.org/; https://jmp.princeton.edu/; https://www.mcgill.ca/; https://www.utoronto.ca/; https://www.nottingham. ac.uk/cspi/; https://www.sorbonne-universite.fr; https://cerhiip.univ-amu.fr/; https://www.mpifg.de/; https://www.freiheit.org/; https://www.kas.de/de/; https://merics.org/en; https://www.internationalaffairs.org.au/; испи.рф; https://jacses.org/en/; https://jitimoiyfikr.uz/oz/markaz; https://nuu.uz; https://dba.uz/uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan

Dunyoning yetakchi xorijiy ta'lim markazlari hamda ilmiy tadqiqot markazlarida, ijtimoiy himoya mexanizmlarida davlatning bevosita ishtirokini kamaytirish orqali nodavlat sektorining faoliyatini faollashtirish tendensiyasi kuchaymoqda (Frankfurt School of Finance & Management). Boshqa bir yondashuvga koʻra, davlat ijtimoiy xizmatlarni bevosita koʻrsatishdan koʻra ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmoqda (University of New Hampshire, AQSh). Berlin School of Economics and Law tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa davlat va nodavlat sektorining o'zaro hamkorligini huquqiy jihatdan mustahkamlash, ularning vakolat va faoliyat doiralarini kengaytirish, ijtimoiy mas'uliyat prinsiplarini xususiy sektor faoliyatiga integratsiya qilish muhim deb topilgan. Yangi davr insonining antroposentrik ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan (McGill university), Buyuk Britaniyaning University of Glasgow tadqiqotlariga koʻra ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga nogironlar, ishsizlar, boquvchisini yoʻqotganlar va yoshi ulgʻaygan shaxslar kirib, ularga nafaqa va boshqa ijtimoiy koʻmak vositalari koʻrsatilishi lozimligi asoslangan. Ayni vaqtda Cambridge va Manchester universitetlari hamda Massachusetts texnologiya instituti tomonidan qadriyatlar tizimining tasnifi va determinatsiyasi boʻyicha turli aksiologik modellar: predmetli aksiologiya, obyektga yoʻnaltirilgan aksiologiya, ikki va uch omilli aksiologik strukturalar ishlab chiqilgan. Kyoto universiteti tadqiqotlarida Yaponiyaning qadriyat tizimi global miqyosda, ayniqsa, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari ijtimoiy-ma'naviy muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani ilmiy asosda isbotlangan. Seul Milliy universitetida esa inson mavjudligining "aksiosfera" darajalari – qadriyatlar orqali insonning mavjudlik shakllarini ifodalovchi konseptual model sifatida tadqiq qilingan. Rossiyaning Moskva davlat universiteti zamonaviy Gʻarb falsafasida mavjud boʻlgan aksiologik yondashuvlarning nazariymetodologik asoslarini oʻrganishga e'tibor qaratgan. Qozogʻistonda Al-Farobiy nomidagi Milliy universitetda esa zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarning ijtimoiy global rivojlanish trayektoriyasi va ularning munosabatlar Milliy ta'siri oʻrganilmoqda. Oʻzbekiston transformatsiyasiga universiteti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda esa qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va ularning milliy ong va oʻzlikni anglashdagi roli tahlil qilinmoqda. Inson qadri tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati sifat jihatdan ochib berilgan ("Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi ilmiy-tadqiqot muassasasi maqomidagi nodavlat notijorat tashkiloti markazi, O'zbekiston Milliy universiteti va Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston).

Dunyoda inson qadrini oshirish va uni chuqur oʻrganish boʻyicha quyidagi yoʻnalishlar alohida ahamiyat kasb etadi: Gʻarb qadriyatshunosligida subyektiv faktorning oʻrni, insonning ijtimoiy hayotdagi maqomi va qadriyat sifatidagi ahamiyati. Bugungi kunda esa inson qadrini yuksaltirish yoʻnalishida xalqaro darajada keng koʻlamli izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, adolat va ijtimoiy tenglik tamoyillarini kuchaytirish, barqaror taraqqiyot strategiyalarida inson manfaatlarini ustuvor qoʻyish kabi tashabbuslar global miqyosda amalga oshirilmoqda. Shu jarayonlar zamonaviy aksiologik izlanishlarning markazida inson qadri masalasini mustahkamlab

bermoqda hamda insonni qadrini oshirishda ijtimoiy ta'minotning ijtimoiy omillaridan foydalanish va milliy boshqaruv madaniyatida aksiologik ong, jamiyat taraqqiyotida moddiy va ma'naviy qadriyatlar omili, shaxs qadriyati, ijtimoiy qadriyatlarning oʻziga xosligi, fan aksiosferasida falsafiy asoslarning oʻzgarishi, zamonaviy ta'lim madaniyatidagi innovatsiyalar aksiologiyasi kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon tafakkuri tarixida inson qadri masalasi Sharq va Gʻarb tadqiqotchilari tomonidan oʻrganilib kelinmoqda. Jumladan, Jan-Jak Russo, F.Nisshe, A.Bergson, Volter, F.Bekon, R.Dekart ijodida insoniylikni tarbiyalash va uning qadrini oshirish mezoni, M.Veber, G.Zimmel E.Dyurkgeym, O.Kont, G.Spenser, T.Parsons, B.Malinovskiy ijtimoiy himoya, ijtimoiy tabaqalanishni, Mayk Payper, Andi Landis, J.Mark insonga e'tibor, insonlarni ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy ta'minotning oʻrni masalasini tadqiq qilganlar. Markaziy Osiyoda Abdulla Avloniy, Maxmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabilar ijodining asosida inson farovonligi va uning qadri muammosi turadi³.

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi davlatlari olimlari va mutaxassislari ham ushbu mavzuda sezilarli tadqiqotlar olib borgan va sohadagi izlanishlar davom etmoqda. N.Berdyaev, N.Chernishevskiy, M.S.Kagan, V.Vasilenko, V.Grechaniy qadriyatlar mavzusini "keng ma'noda" anglash gʻoyasini olgʻa suradilar. S.V.Shishkin, V.I.Bogdanovskaya, A.K.Solovyov, N.B.Topka, Z.Zamarayeva, N.A.Volgin, V.P.Galaganov tadqiqotlari inson qadri va uning farovonligi muhim ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>.

Oʻzbekistonlik olimlarning ilmiy-falsafiy izlanishlarida inson qadri masalalarida muntazam muhokama qilinib kelinmoqda. Bu borada E.Yusupov, B.Aliyev, Q.Nazarov, I.Saifnazarov, G.Navroʻzova, A.Xuseynova, A.Sharipov, S.Choriyev, Sh.Negmatova, M.Xajiyeva, N.Teshayev, I.Siddiqov, N.Xolmirzayev kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida inson, insonparvarlik va qadriyatlar genezisi ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati hamda ijtimoiy ta'minotni jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida davr talablari asosida tadqiq qilishgan<sup>5</sup>.

\_

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> Майк Пайпер (Social Security Made Simple) 2017, — C.130.; Devin Carroll. Social Security Basics: 9 Essentials That Everyone Should Know Paperback. April 5, 2018. — P.108; Andy Landis.Social Security: The Inside Story, 2018 Silver Anniversary Edition Paperback. January 10, 2018. — P.308; Mr. Mark J. Orr CFPSocial Security Income Planning: The Baby Boomer's 2021 Guide to Maximize Your Retirement Benefits Paperback. October 2, 2013. — P.129.

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup> Каган М.С. Философском понимании ценности. // Вестник ЛГУ. Вып.3, Серия 6; Системный подход и гуманитарное знание. – Л.: ЛГУ. 1991; Василенко В.А. Ценность и оценка; – Киев, Наукова думка, 1992; Гречаний В. Истина и ценности. – Л.:ЛГУ. 1997. – С.82.; Василенко В.А. Ценность и оценка. – Киев: Наукова думка. 1982. – Б.36.; Шишкин С.В. Социальное обеспечение экономических реформ, -М.: 2002. – С.572.; В.И.Богдановская. Роль Университета третьего возраста в социальной работе с пожилыми людьми. (Аспирантура, Бакалавриат, Магистратура). Монография. – М.: 2021. – С.56.; Соловьёв А.К. Пенсионные права застрахованных лиц: проблемы формирования и риски реализации. – М.: 2020. – С. 327.; Топка Н.Б. Социальная работа с инвалидами. (Бакалавриат). Учебное пособие. -М.: 2021, -400 стр. З.Замараева. Социальная защита и социальное обслуживание населения. – М.: 2017. – С.175. Волгин Н.А. Основы социального государства. –М.: 2019. – С. 421. Галаганов В.П. Право социального обеспечения. Практикум. (СПО). Учебное пособие, – М.: 2021. – С.153

<sup>&</sup>lt;sup>5</sup> Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998. – Б.148; Алиев Б. Янги Ўзбекистонда фукаролик жамиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(21), 2024. –P.8-16., Nazarov Q., Toʻxtayev X. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – Т.: Universitet, 2022. – 276 b; Саифназаров И. Янги Ўзбекистон: Инсон кадри улуғланган юрт. – Т.: "Илм-Зиё-Заковат" МЧЖ, 2023. – Б.209; Хусейнова А. Шарк мутафаккирлари

Ammo ilmiy adabiyotlarda inson qadri fenomeni alohida mavzu sifatida oʻrganilmaganligi, muammo sifatida maydonga olib chiqilmaganligi bois, mazkur tadqiqotda inson qadri fenomeni gumanistik yoʻnalishda tahlil qilingan va inson qadri rivoj bosqichlari, mezon va tamoyillari hamda ularni barqarorlashtirish mexanizmlari muammosiga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasining "Barqaror demokratik huquqiy jamiyat qurishda axloqiy-ma'naviy tarbiya va falsafiy, huquqiy ongning dialektikasi" doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** inson qadri fenomenining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

#### Tadqiqotning vazifalari:

inson qadri tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil etish va falsafiy kategoriya sifatida tavsiflash;

inson qadriga oid Gʻarb va Sharq olimlari yondashuvlari hamda zamonaviy paradigmalarni tadqiq etish;

jamiyat tarixiy taraqqiyotida inson qadri yuksalishining dialektik xususiyatlarini, intellektual salohiyati va jismoniy imkoniyatlari bogʻliqligini asoslab berish;

davlat va jamiyat munosabatlari tizimida inson qadri omili, inson kapitalini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uygʻunlashtirishga yoʻnaltirishning tashkiliyhuquqiy asoslarini tahlil etish;

Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini yuksaltirish borasidagi islohotlarning aksiologik mezonlarini ishlab chiqish;

inson qadrini yuksaltirish zaruriyati: Yangi Oʻzbekiston strategiyasi va xorijiy standartlar transformatsiyasini tadqiq etish;

jamiyat barqarorligini ta'minlashda inson qadrini oshirish tizimi muhim atribut ekanligini asoslash;

barkamol avlodni tarbiyalash va inson qadrini oshirishning zamonaviy usullarini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida jamiyatda inson qadri namoyon boʻlishi, uning tarixiy-falsafiy rivojlanishi va inson qadrini yuksaltirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlar tanlab olingan.

дунёқарашида умуминсоний қадриятлар. Монография. – Т.: Paradigma, 2017. – Б.136, Sharipov A.Z. Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi –yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida. – FarDU. Ilmiy xabarlar. 2025-2. –В.60–64., Choriyev A., Choriyev S.A., Renessans davri. Yevropa falsafasi. Tafakkur qanoti. 2015. – В.112., Негматова Ш., Орипов Х. В. Влияние глобальных кризисов на духовность человека //Достижения науки и образования. 2018. №. 10 (32)., Khajieva M.S. (2019). Philosophical essence of humanistic ideas of our thinkers. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), – Р. 253–268; Тешаев Н.Н. Фукаролик жамиятини ривожлантиришнинг маънавий омиллари ва мафкуравий тамойиллари. Монография. – Т.: 2023. –Б. 160., Ваkhromovich S.I. (2018). Social and philisophical performance of making youth's intellectual culture. European science review, (7-8), – Р. 296–298; Холмирзаев Н. (2018). Баркамол инсонни шакллантиришнинг асосий омиллари. Scientific journal of the Fergana State University, (5), – В. 19.;

**Tadqiqotning predmeti** inson qadri fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, Sharq va Gʻarb paradigmalari, Yangi Oʻzbekiston sharoitida inson qadrini yuksaltirishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, sotsiodinamik kuzatuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

#### Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

insonning fenomenal-strukturaviy komponentlari (inson erkinligi, inson farovonligi, inson qadri) falsafiy-antropologik diskursning ekzistensializm va nigilizm (mavjud ijtimoiy hayot shakli va axloqiy normalarni, madaniy meros hamda ideallarni inkor etish) konsepsiyalarining komparativistik tahlili asosida ichki salohiyat (erkin tanlov, ma'naviy yetuklik, ijodiy qobiliyat) bilan tashqi shart-sharoitlar (ijtimoiy institutlar, adolat tamoyillari, huquqiy kafolatlar) oʻrtasidagi dialektik bogʻliqligi asoslab berilgan;

Sharq falsafasidagi inson qadrining kosubstansional dualistik xususiyatlari (ikki asosning mavjudligi va ular aynan voqeliklar boʻlmay, yonma-yon mavjudlik tarzida obektiv borligʻida namoyon boʻlishi) introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlarda sotsiotsentrik konsepsiyalar tarzida, Gʻarb falsafasida personalizm, gumanizm, ekzistensializm va liberalizm konsepsiyalari tarzida ifodalanishi aniqlashtirilgan;

inson qadri bilan bogʻliq transsendental voqeliklar (qadriyatlar tizimi, ma'naviy ideallar va madaniy mezonlar) neometafizikaning spiritualistik xususiyatlari bilan aksiologik komponentning dialektik munosabatlari (inson qadri shaxsiy ma'naviy ehtiyoj, ijtimoiy butunlik va birdamlikni ta'minlovchi omil)da jamiyat ma'naviy-mafkuraviy tuzilish va ijtimoiy maqom prizmasi orqali ochib berilgan;

insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida inson qadri va insoniylikning uygʻunlashuvi gumanistik (insonparvarlik, hurfikrlilik, bagʻrikenglik) gʻoyalar vositasida yoshlarni ilm olish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish hamda barkamollik ruhida tarbiyalashda uzluksiz ta'sir koʻrsatishi, barqaror taraqqiyot, milliy va umuminsoniy manfaatlarning mushtaraklashuvi hamda ma'naviy uygʻonishning uzluksizligini ta'minlashi (permanent ahamiyat kasb etishi) isbotlangan;

insonning qadr-qimmati antropologiyaning ma'naviy negizlari (insonning bilimi, qobiliyati, iste'dodi, iqtidori) bilan ularni sotsiodinamik jarayonda unifikatsiyalash (inson salohiyatini umumijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish) va utilizatsiyalash mezonlariga (ijtimoiy hayotga samarali tatbiq etish) moslashtirilganligiga bogʻliqligi dalillangan.

## **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aksiologik va antropologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan konseptual gʻoyalar yoshlar ongida inson qadrini yuksaltirish, gumanistik qadriyatlarni singdirish jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishi, sotsiodinamik jarayonlarda "inson — jamiyat — qadriyat" tizimining dialektik uygʻunligini ta'minlash mezonlari asoslab berilgan;

ma'naviy-axloqiy tarbiyada gumanizm, hurfikrlilik va bagʻrikenglik gʻoyalaridan foydalanishning ta'lim tizimida insoniylik, mehr-oqibat, oʻzaro hurmat va hamjihatlik kabi qadriyatlarni singdirish (pedagogik), hurfikrlilikni rivojlantirish (institutsional), boshqaruv siyosatida gumanistik qadriyatlar mustahkamlash (huquqiy) mexanizmlari takomillashtirilgan;

jamiyatda inson qadrini oshirish orqali ma'naviy merosdagi antropologik gʻoyalar asosida oila institutini mustahkamlash (oilaviy birlik va ijtimoiy birdamlik), tarbiyaviy va madaniy-ilmiy salohiyatni oshirish, tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning oʻrnini yuksaltirish imkoniyatlari (jamiyatning barqaror rivojlanishi, millatlararo totuvlik va madaniyatlararo hamkorlikning mustahkamlanishi) ochib berilgan;

Oʻzbekistonda inson qadrini oshirish tizimini samarali rivojlantirishning nazariy (inson manfaatlarini ijtimoiy-siyosiy islohotlarning markaziga qoʻyish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish) va amaliy (ta'lim va tarbiya, huquqiy tizim, ijtimoiy siyosat, oila institutini mustahkamlash) yoʻllari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qoʻllanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik soʻrov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan oʻtkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari boʻyicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan boʻlib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual gʻoyalardan inson qadrini ijtimoiy adolat, axloqiy mas'uliyat va fuqarolik ongiga asoslangan falsafiy hodisa sifatida asoslashda, qadriyatlar tizimida markaziy oʻrin sifatida anglash, aksiologik va ontologik asoslarini tadqiq etish orqali inson va jamiyat munosabatlariga yangi yondashuvlar ishlab chiqishda, Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini yuksaltirish strategiyasiga falsafiy asos boʻlib xizmat qilishi, davlat va jamiyat munosabatlarini inson manfaatlariga tayangan holda tashkil etish, jahon sivilizatsiyasi tajribalari bilan uygʻunlashtirishda yangicha nazariy qarashlar, fikrlar hamda gʻoyalar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarni ijtimoiy-siyosiy islohotlar mazmuniga singdirish, ularni qonun ijodkorligi va normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasida inson manfaatlari va qadriyatlariga moslik mezoni sifatida qoʻllashda, ijtimoiy adolat va axloqiy mas'uliyat tamoyillarini davlat boshqaruvi hamda fuqarolik institutlari faoliyatida baholash sifatida qoʻllashda, ta'lim tizimida "Inson qadri falsafasi", "Aksiologiya va jamiyat taraqqiyoti", "Postindustrial davrda inson salohiyati" kabi yangi fanlar, oʻquv-modullar va metodik qoʻllanmalar tayyorlashda, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarida inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan targʻibot-tashviqot, ommaviy fikr va ijtimoiy ongni shakllantirish dasturlarini ishlab chiqishda hamda

davlat xizmatchilari, pedagoglar, ijtimoiy soha vakillari malakasini oshirish jarayonida inson qadri fenomenini boshqaruv va amaliy faoliyatga tatbiq etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Inson qadri fenomenini ijtimoiyfalsafiy tahlil etish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

insonning fenomenal-strukturaviy komponentlari (inson erkinligi, inson farovonligi, inson qadri) falsafiy-antropologik diskursning ekzistensializm va nigilizm (mavjud ijtimoiy hayot shakli va axloqiy normalarni, madaniy meros hamda ideallarni inkor etish) konsepsiyalarining komparativistik tahlili asosida ichki salohiyat (erkin tanlov, ma'naviy yetuklik, ijodiy qobiliyat) bilan tashqi shart-sharoitlar (ijtimoiy institutlar, adolat tamoyillari, huquqiy kafolatlar) oʻrtasidagi dialektik bogʻliqligiga doir yangilik va takliflardan Oʻzbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2020-2024-yillarga moʻljallangan Saylovoldi dasturida keltirilgan VIII. "Milliy axborot makonini rivojlantirish sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar" sohasida keltirilgan vazifalarga va koʻnikmalarini oshirishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 19-iyundagi 02/02-40-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya yo'l xaritasida belgilangan dasturlarini amalga oshirishga, partiya tizimidagi xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy yoʻnalishdagi bilim va koʻnikmalarini oshirish, oʻquv-uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarini xolisona yoritishda ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan;

Sharq falsafasidagi inson qadrining kosubstansional dualistik xususiyatlari (ikki asosning mavjudligi va ular aynan voqeliklar boʻlmay, yonma-yon mavjudlik tarzida obektiv borligʻida namoyon boʻlishi) introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlarda sotsiotsentrik konsepsiyalar tarzida, Gʻarb falsafasida personalizm, gumanizm, ekzistensializm va liberalizm konsepsiyalari tarzida ifodalanishiga oid ilmiy natijalar va xulosalardan Oʻzbekiston "Ekologik" partiyasining 2020-2024-yillarga moʻljallangan vazifalarga va koʻnikmalarini oshirishga qaratilgan oʻquvtarbiyaviy faoliyatida foydalanilgan (Oʻzbekiston Ekologik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 19-dekabrdagi 01/515-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda yoshlarning ekologik va estetik ongini shakllantirishda milliy qadriyatlarning ta'sir mexanizmlari hamda ularning ijtimoiy-madaniyligiga doir konseptual modellar partiyaning dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda ilmiy manba boʻlib xizmat qilgan;

inson qadri bilan bogʻliq transsendental voqeliklar (qadriyatlar tizimi, ma'naviy ideallar va madaniy mezonlar) neometafizikaning spiritualistik xususiyatlari bilan aksiologik komponentning dialektik munosabatlari (inson qadri shaxsiy ma'naviy ehtiyoj, ijtimoiy butunlik va birdamlikni ta'minlovchi omil)da jamiyat ma'naviy-mafkuraviy tuzilish va ijtimoiy maqom prizmasi orqali ochib va tavsiyalardan berilganligiga oid yangiliklar Buxoro teleradiokompaniyasining "Assalom Buxoro", "Yoshlar vaqti", "Najot bilimda", "Zamondosh" kabi koʻrsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda hamda Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil ish rejasidagi "IV. Ta'lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishlash, volontyorlikni rivojlantirish va yoshlarga oid istiqbolli g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash yoʻnalishi" ijtimoiy loyihalarida va targʻibot ishlarida foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-maydagi 09-01-84-son hamda Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 23-dekabrdagi 2-15-21-6870-son ma'lumotnomalari). Natijada, yoshlarni barkamol, ilmga intiluvchan, jamiyat rivojiga oʻz hissasini qoʻsha oladigan, rostgoʻy va halol inson boʻlib yetishish hamda inson qadrini oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalari boʻyicha ma'lumotlarni olish imkonini bergan hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarda vatanparvarlikka qaratilgan targʻibot dasturlarini amalga oshirishga xizmat qilgan;

insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida inson qadri va insoniylikning uygʻunlashuvi gumanistik (insonparvarlik, hurfikrlilik, bagʻrikenglik) gʻoyalar vositasida yoshlarni ilm olish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish hamda barkamollik ruhida tarbiyalashda uzluksiz ta'sir ko'rsatishi, barqaror taraqqiyot, milliy va umuminsoniy manfaatlarning mushtaraklashuvi hamda ma'naviy uygʻonishning uzluksizligini ta'minlashi (permanent ahamiyat kasb etishi)ga doir yangiliklaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining II yoʻnalishida belgilangan "Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmunmohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ'iboti" 10bandi "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" g'oyasini aholi ongiga chuqur singdirish hamda milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy va targ'ibot ishlarni tashkil etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 20dekabrdagi 10/225-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxs ma'navivatini shakllantirishda inson qadri va insoniylik uygʻunligining ijtimoiy-falsafiy va ilmiy jihatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

insonning qadr-qimmati antropologiyaning ma'naviy negizlari (insonning bilimi, qobiliyati, iste'dodi, iqtidori) bilan ularni sotsiodinamik jarayonda salohiyatini umum ijtimoiy maqsadlar unifikatsiyalash (inson uygʻunlashtirish) va utilizatsiyalash mezonlariga (ijtimoiy hayotga samarali tatbiq etish) moslashtirilganligiga bogʻliqligiga oid amaliy tavsiyalar va xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqam "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini (2021-2022 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi varatish" doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 24-dekabrdagi 04/11-14059-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyat ijtimoiy hayotida inson qadri fenomeni: ijtimoiy-falsafiy tahliliga falsafiy tushunchalar asosida yondashib ogohlik maqomini insonparvarlik mezonlari va prinsiplari asosida amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi**. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi boʻyicha jami 35 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola (13 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 246 betdan iborat.

#### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, mavzu boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qoʻllanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Inson qadri fenomenini tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslari" deb atalgan birinchi bobida inson qadri tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, bu muammoga oid Gʻarb va Sharq yondashuvlari, zamonaviy paradigmalar tahlil etilgan, shuningdek, falsafiy antropologiya va aksiologiyada inson qadri muammosini oʻrganish metodologiyasi ochib berilgan.

Mamlakatimizda inson manfaatlarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar xalqimizning ijtimoiy, siyosiy hayotini, ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Haqiqatdan yurtboshimizning g'oyalari, tashabbuslari va bevosita rahnamoligi ostida olib borilgan barcha islohotlar, reja va dasturlar, amaliy va sa'y-harakatlar avvalambor inson uchun, uning manfaatlari, farovon hayoti, xavfsizligi va orzu-umidlarining ro'yobga chiqishi uchun qaratilgan. Bizning yurtimizda rejalashtirilayotgan barcha bosh magsadi inson, uning qadrini oshirish, baxtli hayotini ta'minlashdan iboratdir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Inson qadri uchun" degan tamoyil barcha islohotlarimizning asosini tashkil etmoqda. "Inson – jamiyat – davlat" degan yangi tizim asosida O'zbekiston oldinga qarab intilmoqda<sup>6</sup>.

Dissertatsiyada buyuk allomalarimiz boy ilmiy va ma'naviy merosida inson-hayot gavhari, tengsiz mo'jiza sifatida ulug'lanishi asoslangan. Inson munosib sharoitda ta'lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg'unlikda barqaror rivojlanadi. Shuning uchun ham jahon miqyosida inson huquq va erkinliklariga, ushbu tushunchalar bilan bog'liq reyting va

-

<sup>&</sup>lt;sup>6</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – B. 48-51.

standartlarga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Jamiyat rivojining har qanday bosqichida davr qadriyatlari va unga doir asosiy kategoriyalar mohiyatini tadqiq qilish ehtiyoji tugʻiladi.

Inson, inson qadri, "qadriyat", fenomen kabi tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmuni va oʻziga xos jihatlari jamiyat hayoti bilan bogʻliq namoyon boʻladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida xilma-xil qarashlar, mafkuralar, milliy gʻoyalarning asl mohiyatini oʻzida aks ettiradi. Vaqt oʻtishi bilan, uning oʻrniga zamona zayliga qarab yangicha tafakkur va dunyoqarashga ega boʻlgan mafkura va gʻoyalar shakllanib boradi. Lekin mafkura va gʻoyalar oʻzgarib borgani bilan uning asl mohiyati milliy qadriyatlarda saqlanib qoladi. Ana shu mafkura va gʻoyalarning qaysi millat yoki xalqqa tegishli ekanligini koʻrsatib, har bir xalqning uzoq asrlar mobaynida shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-psixologik, axloqiy-estetik xususiyatlar, odatlar, koʻnikmalar va an'analarning birligidan milliy qadriyatlari tashkil topadi<sup>7</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, xattiharakatining ahamiyati sifatida kamolotga yetganligi, ijtimoiy xususiyatlarni oʻzlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham koʻrinadi. Odamzotning shaxsga aylanishi, oʻz qadrini va oʻzgalar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi. Dastlab norasida goʻdak uchun ona koʻkragi, suti, allasi eng asosiy qadriyat boʻlsa, ona qoʻlidan tushgan, ona koʻkragidan ajralgan bola uchun esa, asta-sekin atrof-muhit, oʻzi yashayotgan makon, oʻzga kishilar va oʻzi ham qadriyatga aylanib boradi. Bu davrda u oʻz shaxsiy ehtiyoji va maqsadlarini oʻziga xos "qadriyat koʻzgusi" orqali koʻradi, oʻziga kerakli va zarur narsalarni muhayyo qilishlarini koʻproq xohlaydigan, talab qiladigan boʻlib qoladi. Bolalar hayotining koʻpgina tadqiqotchilari kamolotning bu muhim davrida (5-6 yosh) oʻz qadrini oshirish va shaxsini sevish, ya'ni ularda bolalik egoizmi koʻproq mavjud boʻlishini ta'kidlaydilar<sup>8</sup>.

Dissertatsiyada inson qadri qadimdan falsafiy tafakkurning markazida boʻlib kelgan boʻlsa-da, uning mazmuni jamiyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlariga qarab turlicha talqin etilganligi qayd etilgan. Sharq falsafasida inson qadri koʻproq ma'naviy-ruhiy va komillik mezonlari bilan baholangan boʻlsa, Gʻarb falsafasida u huquqiy erkinlik va ijtimoiy tenglik bilan bogʻlangan. Zamonaviy falsafada inson qadri "ontologik, aksiologik va ekzistensial" kategoriyalar orqali talqin qilinib, jamiyatda insonning oʻrni va vazifasini aniqlashga qaratilgan. Shu asosda inson qadri nafaqat individual xususiyat, balki ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining mezoni ekani asoslab berilgan.

Inson qadri muammosiga oid Gʻarb va Sharq yondashuvlarida Gʻarb paradigmasi — "inson oʻz-oʻzidan maqsaddir" aksiomasi, "inson erkinligi tarixiy taraqqiyotning mazmuni" haqidagi ta'limot, shuningdek, XX asrdagi ekzistensializm va neomarksizmda inson qadrining ijtimoiy va siyosiy

<sup>8</sup> Raximova D., Xidirov X. Ma'naviy omilning rivojlanishida milliy qadriyatlarning oʻrni // Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 255.

<sup>&</sup>lt;sup>7</sup> Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). - Тошкент: "Академия", 2004. –Б.44.

moslashuviga asoslanganligi, Sharq paradigmasi — inson qadri axloq, ma'rifat va ijtimoiy hamjihatlikda koʻrilgani, insonning "kamolotga intilishi" asosiy mezon boʻlganligi dalillangan. Zamonaviy paradigma — globallashuv, postindustrial jamiyat va raqamli sivilizatsiyada inson qadri koʻproq ijtimoiy kapital, bilim va axborot resurslarini oʻzlashtirish qobiliyati orqali namoyon boʻlayotganligini e'tirof etadi. Bu jarayonda "inson — qadriyat — jamiyat" uchligi markaziy oʻrinni egallaydi. Inson qadri fenomenini tadqiq etishda Sharq va Gʻarb falsafasi yutuqlarini uygʻunlashtirish, inson qadrini jamiyat taraqqiyotining mezoni sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqlarni tarixan tarkib topgan milliy qadriyatlaridan chetlashtirish, zamonaviy turmush tarzini an'ana va qadimiy qadriyatlarga qarama-qarshi qoʻyish jamiyatda ijobiy natija bermaydi. Ijtimoiy erkinlik va milliy oʻziga xoslik, umumiy birlik jamoaviylik hamisha insonlar ezgu gʻoyalarga chorlagan. Birinchidan, har bir fuqaroning muayyan millat vakili sifatida hayotda oʻz oʻrni va mavqega ega ekanligini belgilash; ikkinchidan, oʻzini uzoq asrlar davomida shakllangan millat vakili sifatida ajdodlar milliy qadriyatlari va merosiga voris ekanligini his qilish, uchinchidan, milliy qadriyatlarga ega boʻlish insonning kamsitilishi yoki qoloqligi emas, balki umuminsoniy qadriyatlar sari yoʻl ochuvchi fazilat ekanligini tushunib yetish mamlakat istiqbolini belgilashda juda katta ahamiyatga egadir. Zero, "Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros boʻlib kelayotgan odobaxloq qoidalarining butunlay yoʻqolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, inson qadri va qadriyatlariga, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish gʻoyat birlamchi vazifamizdir".

Tadqiqotda insonning oʻzini qadriyati sifatida talqin qilish bilan uning qadri va shaxsiy darajadagi qadriyatlar tizimi toʻgʻrisidagi masalalar bir-biridan farq qilishi ta'kidlangan va asoslab berilgan:

- har bir insonni qadriyat sifatida qarash mumkin. Bunda insonning oʻzi, uning tabiiy-tarixiy jarayondagi mavjudligi, tirik jonzotlar orasida yagona ijtimoiy vujud ekani e'tiborga olinadi.
- insonning qadri, ya'ni uni ijtimoiy jarayonlardagi o'rni, atrof-muhit va boshqa kishilar uchun ahamiyati, jamiyatdagi mavqei kabi masalalarni tadqiq qilish mumkin. Bunday tahlil insonning ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini o'rganishga asoslanadi.
- shaxsning ma'naviy olami, qiyofasi, qiziqish dunyosi, talab va ehtiyojlari, faoliyati bilan bogʻliq qadriyatlar tizimini ham tahlil qilish mumkin. Bunda asosiy e'tibor qadriyatlarning shaxsiy (alohida, yakka) darajada namoyon boʻlish shakllari va xususiyatlariga qaratiladi<sup>10</sup>.

Dissertant mulohazalariga koʻra, inson tabiatning oliy moʻjizasi, tarixiy taraqqiyotining ijtimoiy mahsuli sifatida jamiyatdagi asosiy qadriyat sanaladi. Har qanday jamiyatning ijtimoiy odilligi unda umuminsoniylik mezonlariga amal qilinishi, pirovard natijada inson qadrining qay darajada ekanligi, shaxsning

-

<sup>&</sup>lt;sup>9</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: "Oʻzbekiston", 2021. B.276-277

<sup>10</sup> Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). - Тошкент: "Академия", 2004. –Б.46.

individual qadriyatlarni namoyon qilishi uchun imkoniyatlar yaratilganligi bilan bogʻliq. Mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirish borasida kelgusi uchun muhim vazifa va maqsadlar belgilab olingan. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda inson qadri masalasini tahlil etishda jamoatchilik nazorati institutining roli muhim ahamiyatga ega.

Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini ulugʻlash gʻoyasi faqat islohotlar poydevori emas, balki ma'naviy uygʻonish jarayonining mezoni sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda xalqimizning ma'naviy merosi va buyuk zotlardan qolgan insonparvarlik falsafasi har bir avlodning tarbiyasida hayotiy manbaga aylanmoqda. Kishilararo munosabatda ba'zi qadryatlarning qadrsizlana boshlaganligi, odamlar orasida giyohvandlik, firbgarlik, ishyoqmaslik, tekinxoʻrlik, oʻgʻrilik va boshqa yaramas illatlarning tez-tez sodir boʻlib turishi hamda jamiyatda insonlarni qadrlashda barkamol avlodni tarbiyalashga diqqat-e'tiborni qaratishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Jamiyatda inson qadrini oshirishning obyektiv va subyektiv omillari" deb nomlanib, unda jamiyat tarixiy taraqqiyotida inson qadri yuksaltirishning dialektik mohiyati va postindustrial jamiyat sharoitida inson salohiyati va qadriyatlarning oʻzaro bogʻliqligi tahlil etilgan.

Ma'naviyat insonga oʻziga xos betakror mohiyat, imkoniyat baxsh etib, jamiyat a'zolarini birlashtirib, uyushtirib turadi, u shaxsning, insonning xalqning, davlatning, jamiyatning kuchi va qudratidir. "Biz keyingi paytda, ming afsuski, "ma'naviyat" tushunchasining obroʻyini tushirib yubordik. Ma'naviyatga goʻyoki keraksiz narsadek munosabatda boʻldik. Bugun koʻpchilik yoshlar ongini iste'molchilik kayfiyati, Vatan, el-yurt taqdiriga beparvolik, "ommaviy madaniyat" koʻrinishlari egallab olmoqda. Oʻzingiz ayting, oʻz xalqining tarixini, ma'naviy va diniy qadriyatlarini hurmat qilmaydigan, ularni himoya qilishga qodir boʻlmagan odam vatanparvar va elparvar boʻlishi mumkinmi?" deb Abdulla Avloniy XX asrning boshidayoq ushbu fikrni aytib oʻtgan edi.

Tadqiqotda inson qadri jamiyat taraqqiyoti jarayonida obektiv omillar bilan belgilanishi asoslangan va ular quyidagi tartibda keltirilgan:

- ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy barqarorlik, turmush darajasi va farovonlik inson qadrining eng muhim asoslaridir. Iqtisodiy qashshoqlik sharoitida inson qadrining real koʻrinishi cheklanadi, iqtisodiy barqarorlikda esa u yuksaladi.
- huquqiy davlat tamoyillari insonning huquq va erkinliklarini qonuniy kafolatlash, adolatli sud-huquq tizimi va qonun ustuvorligi inson qadrini oshiruvchi obektiv shart hisoblanadi.
- ijtimoiy institutlar faoliyati oila, ta'lim, madaniyat, din, fuqarolik jamiyati institutlari inson qadrining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular insonni qo'llab-quvvatlash va uning qadr-qimmatini namoyon qilish uchun ijtimoiy baza vazifasini o'taydi.
- ilmiy-texnik taraqqiyot postindustrial va raqamli jamiyatda inson qadri bilim, innovatsiya, axborot resurslari va ijtimoiy kapital orqali namoyon boʻladi.

\_

<sup>11</sup> Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлок. – Тошкент, 1991. –Б.28.

Shuningdek subektiv omillari sifatida:

- inson qadri faqat tashqi shartlar bilan emas, balki insonning ichki dunyosi, ongli faoliyati bilan ham belgilanishi;
- ma'naviy-axloqiy sifatlar insof, adolat, vatanparvarlik, bagʻrikenglik kabi xususiyatlar inson qadrining ichki poydevoridir. Bu fazilatlar jamiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlanganda, inson qadri umumiy ma'noda yuksaladi.
- bilim va intellektual salohiyat shaxsning bilim olishga intilishi, ijodiy tafakkuri va innovatsion qobiliyati uning qadrini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.
- erkinlik va mas'uliyat tuygʻusi inson oʻz huquq va erkinligidan ongli ravishda foydalanishi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashi orqali qadr-qimmati yuksaladi.
- oʻzini anglash va oʻzini rivojlantirish insonning oʻz imkoniyatlarini anglashi va kamolotga intilishi uning qadrini ichki jihatdan belgilashi keltirilgan.

Demak, inson qadrini oshirish jarayonida obyektiv va subyektiv omillar birbirini toʻldiruvchi va kuchaytiruvchi tarzda namoyon boʻladi.

"Inson qadrini ulugʻlash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir". Inson qadrini ulugʻlash deganda, nafaqat bugungi vatandosh va zamondoshlarimiz, balki, Oʻzbekistonimiz taraqqiyoti uchun oʻz vaqtida koʻplab xizmatlarni bajargan davlat va jamoat arboblari, yozuvchi va shoirlar, olimlar, oʻz sohasining yetuk bilimdonlarini ham ulugʻlash nazarda tutiladi. Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, insonparvarlik va bagʻrikenglik taraqqiyparvar insoniyatning azaliy qadriyati sifatida asrlar davomida ulugʻlanib, sayqallanib ajdodlardan avlodlarga meros boʻlib kelmoqda. Dunyoda kechayotgan tahlikali jarayonlarning jadallashuvi bugun insoniyat oldida juda ma'suliyatli vazifa-yuqorida ta'kidlangan ezgu gʻoyalar atrofida birlashib, insoniyatni baxt-saodati yoʻlida hamjihat boʻlishni taqozo qilmoqda.

Dissertatsiyada qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga oʻziga xos ta'sir koʻrsatishi asoslab berilgan. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasalar, gohida ma'naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xattiharakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydilar, faoliyatlarini boshqarib yoki yoʻlga solib turadilar. Bunda qadriyatlarning regulyativ funksiyasi va ma'naviy mezon sifatidagi ahamiyati yaqqol namoyon boʻladi. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yoʻlida birlashtiradi, ular faoliyatining yoʻnalishini belgilaydi. Aksiologik baholashda u yoki bu davr kishilariga biror tabaqa, qatlam, sinf, millat yoki irq vakili sifatida emas, balki tiriklikning eng oliy moʻjizasi boʻlgan odamzod naslining vakili sifatida qarash ustivor boʻladi. Bunda quyidagilar e'tirof etiladi:

- inson jamiyatning eng oliy qadriyati, odamzod naslini davom ettiruvchi avlod vakilidir;
- har bir shaxsning tirikchilik qilish, umrguzaronlik munosabatlarida boʻlish, yashash huquqi bor;

-

<sup>12</sup> Саифназаров И. Янги Ўзбекистон: Инсон қадри улуғланган юрт. – Тошкент, 2023. – Б.27.

- insonning yashash huquqi tabiiy va muqaddasdir, uni odamzodga hech kim bermagan va hech kimning odam zotini undan majburiy mahrum qilishga haqqi yoʻq;
  - hamma narsa inson uchun, unga qarshi narsalar jamiyatga ham qarshidir;
- insonni qadrlash jamiyatni qadrlash demakdir, insonning qadrini oshirish taraqqiyotning asosiy mezonidir;
- odamzod naslining umrini uzaytirish, hayotini yaxshilashga qaratilgan oʻzgartishlar ijobiy yoʻnalishga ega va hokazo.

"Ijtimoiy voqelikni qadriyatli baholash obyektlari xilma-xil va turli-tuman, zero nimagaki aksiologik yondashilsa uni aksiologik baholash mumkin" <sup>13</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, insoniyatning qadri ham ilm bilan hosil boʻladi. Ilmni egallab olish esa ta'limdagi bir san'atga qiyoslanadi. Ta'lim mazmun va mohiyatan jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasiga borib taqaladi. Umumiy va sohaviy bilimlarga boʻlgan ehtiyoj, ta'lim haqidagi pedagogik gʻoyalar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha ahamiyat kasb etib, oʻzgarib kelgan. Jamiyatning asosiy negizi boʻlgan ta'lim va tarbiya jarayonida insonning sifatlari, dunyoqarashi va turli xil qobiliyatlari shakllanib, oʻsib boradi. Texnologiyalarga haddan ortiq suyanish, insoniylikning chekinishi — bu postindustrial jamiyatda inson qadri tanazzulining asosiy sabablaridandir. Postindustrial jamiyat — bu industrial ishlab chiqarishdan koʻra koʻproq axborot, texnologiya, xizmatlar va raqamli infratuzilmaga asoslangan jamiyat. Bu jamiyatda inson — mehnat subekti emas, balki ma'lumot iste'molchisiga aylanadi. Bu jarayon koʻplab falsafiy va antropologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Postindustrial jamiyat sharoitida inson salohiyati va qadriyatlar oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, ularni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etish zamonaviy taraqqiyotning muhim talabi hisoblanadi. Chunki bunday jamiyatda asosiy ishlab chiqarish omili sifatida moddiy resurslardan koʻra koʻproq bilim, intellektual salohiyat va ma'naviy qadriyatlar hal qiluvchi oʻrinni egallaydi. Chunonchi:

*Birinchidan*, postindustrial jamiyatda insonning salohiyati uning bilim darajasi, ijodiy yondashuvi, ijtimoiy innovatsiyalarni qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Bu jarayonda erkinlik, adolat, inson qadr-qimmati va ma'naviy mas'uliyat – inson salohiyatini roʻyobga chiqarishda mezon vazifasini bajaradi.

*Ikkinchidan*, inson salohiyatining oʻsishi jamiyatda qadriyatlarning qayta baholanishini taqozo etadi. Masalan, industrial davrda mehnat unumdorligi va moddiy ishlab chiqarish qadriyat sifatida ustuvor boʻlgan boʻlsa, postindustrial davrda bilim, innovatsiya, axborot, ijodkorlik va axloqiy mas'uliyat asosiy qadriyatlar sifatida shakllanadi.

Uchinchidan, inson salohiyati va qadriyatlar dialektik aloqada rivojlanadi: qadriyatlar inson salohiyatining ma'naviy-axloqiy asosini belgilasa, salohiyat qadriyatlarning ijtimoiy amaliyotda roʻyobga chiqishini ta'minlaydi. Ayniqsa, bilim iqtisodiyoti va global integratsiya jarayonlarida inson salohiyatini rivojlantirish qadriyatlar bilan uygʻunlikda olib borilmasa, ma'naviy inqiroz va ijtimoiy tafovutlar yuzaga kelishi mumkin.

-

<sup>13</sup> Назаров К. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). - Тошкент: "Академия", 2004. -Б.24-25.

Dissertant mulohazalariga koʻra, inson qadrini ulugʻlash — bu faqat axloqiy talab emas, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniyatlararo totuvlikning fundamental mezonidir. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa yoshlar ongiga qadriyatlar asosidagi ma'naviy immunitetni singdirish va ta'limni gumanistik yondashuv asosida tashkil etish bilan bevosita bogʻliqdir. Inson qadrini ulugʻlash, avvalo, shaxsning mafkuraviy barqarorligi va huquqiy tafakkurini rivojlantirishdan boshlanadi. Bunda ongli tanlov va ijtimoiy mas'uliyat subyektiv omil boʻlsa, tenglik va adolatga asoslangan muhit obyektiv omildir. Uygʻun tafakkur egasi oʻz qadrini bilib, boshqalarnikiga ham hurmat bilan yondashadi.

Adolat va qonun ustuvorligi inson qadrining kafolati boʻlib, yangi avlodni tarbiyalashda jamiyatni ongli yuksalishga yoʻnaltirish, oʻzligini tanib, har bir insonda ichki taraqqiyot manbaini uygʻotish zarur.

Dissertatsiyaning "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali inson qadrini yuksaltirishning falsafiy asoslari va modellari" deb nomlangan uchinchi bobida davlat va jamiyat munosabatlari tizimida inson qadri omilining aks etishi hamda inson kapitali va ijtimoiy manfaatlar uygʻunligining tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil etilgan.

Inson kamoloti toʻgʻrisidagi ilk tasavvurlar falsafa maydonga kelishidan ancha avval paydo boʻlgan. Mavjudotlar ichida aziz va mukarram qilib yaratilgan inson oʻzining aqli, ongi va tengsiz zakovati, odamiylik kabi fazilatlari bilan ulugʻdir. Hazrati odam — bilim, aqlu-idrok sabab, muhtaram<sup>14</sup>. Kamolotga yetgan insonni turli tushunchalar bilan tasnif etganlar. Ularga nisbatan "sogʻlom inson", "barkamol inson", "haqiqiy inson" degan tushunchalar ishlatilgan. Inson qadri — ijtimoiy tizimda shaxsni markazga qoʻyish, uning manfaatlari, huquqlari va imkoniyatlarini ta'minlash bilan chambarchas bogʻliq. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar esa aynan inson hayotini yaxshilash, salohiyatini roʻyobga chiqarish, tenglik va adolatni ta'minlashga qaratilgan tizimli oʻzgarishlardir.

Tadqiqotda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi oʻrni va mavqei ortib borayotgani, Yangi Oʻzbekiston — inson qadri, huquq va manfaatlari himoyalanadigan ijtimoiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanib borayotgani e'tirof etildi. Yangi Oʻzbekistonning dunyoga, dunyoning esa Oʻzbekistonga ochilganiga alohida urgʻu berilgan. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson qadri har qanday islohotlarning bosh mezoni boʻlib kelgan. Falsafiy nuqtayi nazardan inson qadri aksiologik, antropologik va ekzistensial kategoriyalar orqali ochib beriladi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligi inson qadri bilan oʻlchanadi.

Postindustrial davrda esa inson qadri, bir tomondan, iqtisodiy resurslarni taqsimlash adolati, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tenglik, imkoniyatlar erkinligi va ma'naviy taraqqiyot bilan belgilanadi. Shu bois Oʻzbekistonda olib borilayotgan islohotlar inson rivojlanish modeli sifatida talqin etilishi mumkin. Iqtisodiy islohotlar – bu faqat moliya, bank, soliq yoki bozor mexanizmlarini oʻzgartirish emas, balki ular orqali insonning moddiy va ma'naviy farovonligini oshirish vositasidir. Bu jarayonda:

1

<sup>&</sup>lt;sup>14</sup> Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. -Тошкент: "Юлдузча", 1990. -Б.11.

- iqtisodiy oʻsish (YaIM hajmi, sanoat va xizmatlar sektori kengayishi) inson farovonligini oshirishning moddiy omilidir;
- ijtimoiy taqsimot (daromadlar tengligi, adolatli soliqlar, bandlik siyosati) inson qadrini ta'minlaydigan asosiy mexanizmdir;
- madaniy-ma'naviy soha rivoji (ta'lim, ilm-fan, san'at, ma'naviyat) inson qadrini yuksaltiruvchi poydevordir. Shu nuqtayi nazardan islohotlarni faqat iqtisodiy samara orqali emas, balki inson qadri va jamiyatdagi ijtimoiy adolat koʻrsatkichi orqali ham baholash zarur.

Tadqiqotchi fikricha, Oʻzbekistonning soʻnggi yillardagi islohotlari xalqaro indekslarda ham oʻz ifodasini topmoqda. Jumladan, inson taraqqiyoti indeksi (HDI, UNDP)da 2010-yilda Oʻzbekiston 0.665 koʻrsatkich bilan "oʻrta rivojlangan" davlatlar qatorida edi. 2023-yilda koʻrsatkich 0.727 ga yetib, "yuqori rivojlangan" davlatlar toifasiga yaqinlashdi. Bunga inson kapitali — ta'lim, umr davomiyligi va daromad oʻsishi orqali erishilgan<sup>15</sup>. Global baxt indeksi (WHR)da 2015-yilda Oʻzbekiston 44-oʻrinda boʻlgan, 2023-yilda esa 53-oʻringa tushgan. Bu koʻrsatkich moddiy ne'matlar oʻsishi bilan birga, ijtimoiy tenglik va boshqaruv sifati kabi qadriyatlar bilan bogʻliq ekanini koʻrsatadi<sup>16</sup>. Gender tenglik indeksi (WEF)da 2023-yilda Oʻzbekiston 117-oʻrinda boʻlib, bu sohada islohotlarni chuqurlashtirish zarurligini koʻrsatadi. Ushbu ma'lumotlar inson qadri oshishi uchun faqat iqtisodiy koʻrsatkichlar emas, balki ijtimoiy adolat va tenglik koʻrsatkichlari ham dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni falsafiy asosda tahlil qilishda quyidagi modellardan foydalanish muhim rol oʻynashi asoslangan:

- 1. "Inson markazda" rivojlanish modeli (Human-centered development) iqtisodiy o'sish vosita, inson qadri esa maqsad sifatida qaraladi<sup>17</sup>.
- 2. Adolatli taqsimot modeli jamiyatdagi resurslarni eng koʻp ehtiyojmand qatlam foydasiga taqsimlashni nazarda tutadi<sup>18</sup>.
- 3. Sivilizatsion uygʻunlik modeli Sharq (axloqiy-ma'naviy qadriyatlar) va Gʻarb (huquqiy-demokratik qadriyatlar) yondashuvlarini integratsiya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligiga asoslanadi<sup>19</sup>.
- 4. Innovatsion taraqqiyot modeli inson salohiyatini raqamli iqtisodiyot, ilmfan, kreativ sohalar orqali roʻyobga chiqarish<sup>20</sup> boʻlib hisoblanadi.

Yangi Oʻzbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning bosh bogʻlovchi boʻgʻinini, oʻzagini Yangi Oʻzbekistonda "Inson

<sup>&</sup>lt;sup>15</sup> Yarmatov Sh. Inson kapitali innovatsion iqtisodiyotni rivojlanishining muhim omili. // TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – Toshkent, 2023. - №2. –B.73.

<sup>&</sup>lt;sup>16</sup> Otis, Nicholas G., Solène Delecourt, Katelynn Cranney, and Rembrand Koning. "Global Evidence on Gender Gaps and Generative AI". Harvard Business School Working Paper, No. 25-023, October 2024. –P.43.

<sup>&</sup>lt;sup>17</sup> Mienye I. D., Swart T. G., and Obaido, G. Fairness Metrics in AI Healthcare Applications: A Review. 2024 IEEE International Conference on Information Reuse and Integration for Data Science (IRI), 7-9 Aug. 2024. –P.284-289. <sup>18</sup> Po'latova B. Insoniylik va inson huquqlari. –Toshkent: "Adolat", 1999. – B. 112.

<sup>19</sup> Utepova T.B. Sharq va Gʻarb madaniyatining tarixiy-genezis masalalari // Falsafa va huquq. − 2014. − № 1. − B.

<sup>&</sup>lt;sup>20</sup> Ollaberganova R.K. "Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari" // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. − Toshkent, 2024. - №5. −B.836-840.

qadri uchun", "Avval inson – keyin jamiyat va davlat", "Hech kim ortda qolmaslik" gʻoyalari tashkil etadi<sup>21</sup>.

Ming yillardirki inson, uning mohiyati, hayotining mazmuni masalalari falsafa va fanlarning bosh tadqiqot mavzularidan biri boʻlib kelmoqda. Inson muammosiga bagʻishlangan turli farazlar, nazariyalar va konsepsiyalar yaratildi hamda yaratilib kelinmoqda. Lekin zamonlar oʻtishi bilan inson shaxsi qanchalik darajada oʻrganilmasin, u haqidagi hali bilinmagan, yechilishi muhim boʻlgan muammolar, jumboqlar koʻpayib boraverdi. Xuddi shunday musulmon falsafasi va uning asosini tashkil etuvchi tasavvuf falsafasi namoyondalarining qarashlarida ham inson mohiyati masalasi alohida oʻrin egallaydi. Jumladan musulmon faylasuflari ham odam bilan olam orasidagi oʻzaro aloqadorlik muammolarini bilishga harakat qildilar.

Tasavvufda eng koʻp tarqalgan tushuncha komil insondir. Komil inson barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, qalbi ezgu tuygʻularga toʻlgan pokiza zot. Bu odamlar – jamiyatning tirik vijdoni hisoblanadi. Kishilar ularga qarab hushyor tortadi va dunyo behudaligidan oʻziga kelib, oʻz qalbiga, oʻz qiladigan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar. Komillik yoʻlining bosh asosi koʻngilni mosivodan xalos etish. Bu tushunchani birinchi marta Mansur Xalloj ishlatgan<sup>22</sup>. Keyinchalik Ibn Arabiy "insoni komil" tushunchasining poydevorini qurgan bo'lsa, Imom G'azzoliyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil inson va inson kamoloti masalalari atroflicha tahlil qilinganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, "Hujjat-ul Islom" nomi bilan shuhrat topgan Imom G'azzoliy hazratlari "Ihyo ulumid-din" (Din ilmlarini jonlantirish) asarining birinchi kitobi "Ilm kitobi"da shunday yozgan: "Abdulloh ibn Muborakdan: "Komil insonlar kimlar?" deb so'rashdi. "Olimlar", deb javob berdilar". Ibn Muborak olimlardan boshqasini komil inson demadilar. Chunki, insonni hayvonlardan ajratib turadigan asosiy xususiyati ham ilmdir. Inson nima bilan sharafli bo'lsa, o'sha narsa bilan insondir. G'azzoliy insonni ilm bilan sharafli ekanligini dalillar bilan isbot etadi. Insonlarning afzalligi jismoniy quvvatda emas, deydi Gʻazzoliy, zero, tuya insondan ancha baquvvatdir. Jismning kattaligi bilan ham inson afzal emas, zero fil undan kattaroqdir. Inson afzalligi shijoat bilan ham o'lchanmaydi, chunki yirtqich hayvon undan koʻra shijoatliroq. Yeb-ichish bilan ham inson afzal emas, hoʻkizni qorni unikidan kattaroqdir... Demak, xulosa qiladi G'azzoliy, inson faqat ilm uchun yaratilgan va ilmni egallagani bilan afzaldir<sup>23</sup>. Komillikning asosini u hamma vaqt tarbiya, ilm ular vositasida aqlni peshlab borish hamda ma'naviy, ruhiy poklikda deb bilgan. Bu kabi ma'rifiy, insonparvarlikni targ'ib qiluvchi qarashlar shoirga xalq orasida katta shuhrat keltiradi.

Tadqiqotchi fikricha, ajdodlarimiz azaldan amal qilib kelayotgan moʻtadil islom va uning ta'lim-tarbiya uslublari, musulmon kishiga xos asl fazilatlar qanday boʻlgani, bunday koʻnikmalar qay tarzda shakllantirilganligini pedogogik jihatdan

 $<sup>^{21} \</sup>quad https://kun.uz/uz/news/2017/08/31/halk-davlat-idoralariga-emas-balki-davlat-organlari-halkimizga-hizmat-kilisi-kerak-prezident-nutki$ 

 $<sup>^{22}</sup>$  Наврўзова Г. Накшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. -Тошкент: "Фан", 2005. - Б.125.

 $<sup>^{23}</sup>$  Музаффаров Ф. Ғаззолий инсонга оид таълимотининг илмий-фалсафий асослари. - Тошкент: "Турон замин зиё", 2014. -Б.79.

o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'rta asrlar Markaziy Osiyo madaniy hayotining xususiyatlaridan biri javonmardlik g'oyalarining tasavvuf g'oyalari bilan qoʻshilib ketishidir. Bu jarayonda kubroviya tariqatining asoschisi shayx Najmiddin Kubroning xizmatlari kattadir. X asrdan boshlab Markaziy Osiyoda javonmardlik harakati va gʻoyalari tarqala boshlagan. "Javonmard" - mard yigit, "javonmardlik" -mardlar tariqati demakdir. XIII asrga kelib bu harakat ommaviy tus oladi va birodarlik tashkilotlari vujudga kela boshlaydi. Javonmardlik harakatining vakillari - hunarmandlar, sipohiylar, pahlavonlar, qiziqchilar, dorbozlar, lashkarboshilar va boshqa toifa kishilardan tashkil topgan. Javonmardlar muayyan qoidaga amal qilib, jismoniy va ma'naviy yetuklikka intilar, qaerda va ganday ish ustida bo'lmasin, mardlik va oliyjanob fazilatlarini ko'rsatar, adolatni himoya etar edi. Ular inson qadrini barcha moddiy boyliklardan yuqori turadi deb bilganlar. Insonga xolis xizmat qilish va shu bois ma'naviy yetuklikka erishish -Umuman javonmardning asl maqsadi. olganda, tasavvufshunos N.Komilovning ta'kidlashicha, "tasavvuf javonmardlikda yuksak g'oyalarning amaliy, ijtimoiy tatbiqini koʻrgan boʻlsa, javonmardlik tasavvufda gʻoyaviynazariy poydevorni topgan edi"<sup>24</sup>.

Haqiqatan ham hozirigi kun talabi ta'limni tubdan o'zgartirish, yangilash, uni zamonaviy talablar darajasida yetkazish vazifasini qo'ymoqda. Ta'lim, xususan, uning tarkibiy qismi bo'lgan maktabgacha ta'lim oldida yangidan-yangi imkoniyatlarni ishga solish bu boradagi mavjud muammo yechimini topish vazifasi turibdi. Ushbu tahliliy ma'lumotlar asosida yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda inson kapitalini shakllanishi va rivojlanishi uchun eng muhim bo'lgan ilk bosqich maktabgacha ta'lim xizmatlarini sifatiga bog'liqdir. Haqiqatan ham bola oliy ta'limda yaxshi o'zlashtirishga erishishi uchun u umumiy o'rta ta'lim yoki o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, uning uchun esa u maktabgacha ta'limni kuchli o'zlashtirishi lozim bo'ladi. Demak, birinchi o'rinda inson kapitali shakllantirish bilan bog'liq ta'lim tizimi va unga xos ta'lim xizmatlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Dissertatsivada bargaror taraggiyot va yuksaklik sari intilayotgan davlatlarning tajribasi bilan tanishish orqali yoshlarda fuqarolik tuygʻusini ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, bagʻrikenglik, adolatparvarlik kabi sifatlarni qaror toptirish, fuqarolik pozitsiyasini zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirish asosida rivojlantirish zarur, degan xulosaga kelingan. Yuksak zakovat, chuqur bilimli iqtidor egalarini tayyorlashda, tabiiyki, ta'lim tizimi oldingi o'ringa chiqadi. Ana shu nuqtayi nazardan yoshlarni o'qitish va tarbiyalash jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligiga, balki, birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turadigan texnologiyalarni yaratish va oʻzlashtirishga qodir boʻlgan sifatli inson kapitaliga bogʻliq boʻlmoqda. Bunday sifatli inson kapitalisiz mamlakatda ilm fanga asoslangan ishlab chiqarishlarni tashkil etib boʻlmaydi.

\_

 $<sup>^{24}</sup>$  Сулаймон Боқирғоний. "Боқирғон китоби". -Тошкент: "Ёзувчи", 1991. -Б.41.

Inson kapitalini rivojlanishi insondagi inson kapitali tashkil etgan elementlarni (bilim, sogʻliq, tajriba, koʻnikma) bir-biriga bogʻliq holda yanada jonlantirish demakdir. Inson kapitalini rivojlantirish uni shakllantirishga qaraganda ancha kengroq tushuncha boʻlib hisoblanadi. Bunda inson kapitalini rivojlantirish kompleks tarzda insonning ham rivojlanishiga olib keladi. Inson kapitalini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jahonning yetakchi olimlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan juda koʻp tadqiqotlarda oʻz tasdigʻini topgan. Xususan, insonni rivojlantirish insonlarning sogʻlom va uzoq, munosib turmush kechirishlari qolaversa zarur vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham inson kapitali rivojlangan boʻlishi maqsadga muvofiqdir. Inson kapitalini rivojlanish bosqichi uzlyuksiz ta'lim tizimining oʻrta maxsus kasb-hunar ta'lim xizmatlari, oliy ta'lim xizmatlari, oliy oʻquv yurtidan keyingi ta'lim xizmatlari, kadrlar malakasini oshirish bilan bogʻliq ta'lim xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Dissertatsiyada inson kapitalini rivojlanishi boʻyicha Oʻzbekiston tajribasida:

- ta'lim va kadrlar salohiyati;
- sogʻliqni saqlash;
- ijtimoiy himoya;
- raqamli iqtisodiyot kabi inson qadrini oshirish imkoniyatlari ochib berilgan. Inson qadrini rivojlantirishning istiqbollari sifatida quyidagilar:
- ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish;
- ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash resurslarning adolatli taqsimoti orqali qadrni yuksaltirish;
- demokratik boshqaruv va huquqiy davlat inson huquq va erkinliklarini kafolatlash;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligi jamiyat barqarorligini ta'minlash;
- innovatsion taraqqiyot inson qadri va salohiyatini zamonaviy texnologiyalar orqali rivojlantirishning falsafiy asoslari nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirilgan.

Dissertant mulohazalariga koʻra, mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlarninig asl maqsadi islohot islohot uchun emas, islohot inson uchun, uning baxt va saodati uchun degan amaliy ishlarning mazmun mohiyatini tashkil etadi. Ta'limni tubdan oʻzgartirish, yangilash, uni zamonaviy talablar darajasida yetkazish, xususan, uning tarkibiy qismi boʻlgan maktabgacha ta'lim oldida yangidan-yangi imkoniyatlarni ishga solish bu boradagi mavjud muammo yechimini topish vazifasi turibdi. Mamlakatimizda inson kapitalining shakllanishi — bu inson ongining ildizdan boshlab mustahkamlanishidir. Aynan maktabgacha ta'lim bosqichi - bola tafakkurining ilk mevasini berguvchi manba boʻlib, uning keyingi hayotiy va ilmiy yoʻlida poydevor vazifasini oʻtaydi. Oliy ta'limdagi muvaffaqiyatlar zamirida dastlabki bosqichdagi puxta tayyorgarlik yotadi, shu bois maktabgacha ta'lim inson qadrini yuksaltirishga intilgan jamiyat kelajagining eng muhim poydevoridir.

Har bir davlat oʻz fuqarolarida zamon talablariga xos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Barqaror taraqqiyot va yuksaklik sari intilayotgan davlatlarning tajribasi bilan tanishish orqali yoshlarda fuqarolik tuygʻusini tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish, oʻz-oʻzini anglash, bagʻrikenglik, adolatparvarlik kabi sifatlarni qaror toptirish, fuqarolik pozisiyasini zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirish asosida rivojlantirish zarur. Shu bois, yoshlarni oʻqitish va tarbiyalash jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qoʻllash katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatdagi islohotlar mohiyati inson manfaatiga, uning farovonligiga xizmat qilishdir. Inson kapitalini rivojlantirish esa nafaqat huquqiy choralar, balki ongli va qadriyatlarga tayangan yondashuvni talab etadi.

Dissertatsiyaning "Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini yuksaltirish vazifalari va istiqbollari" deb nomlangan toʻrtinchi bobida Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini yuksaltirish islohotlarining tarixiy asoslari, inson qadri va strategik taraqqiyot mezonlarning oʻzaro ta'siri va inson qadrini yuksaltirish istiqbollari tadqiq etilgan.

XXI asrda turli hayot tarzlari va gʻoyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat oʻzligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega boʻlishi lozim. Aks holda, oʻzlikni yoʻqotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yoʻq manqurtga aylantirib qoʻyadi. Hozirgi kunda gʻarazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlarning oʻzligini yoʻqotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e'tibor hududlarni egallash emas, inson ongini egallashga yoʻnaltirilgan. Ya'ni inson, har bir shaxs, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadrqimmati va boshqa ajralmas huquqlari umuminsoniy oliy qadriyatga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu qadriyat Gʻarbda yuzaga kelgan gʻoyalarga asoslangan, degan qarashlar mutlaqo notoʻgʻri. Zero, inson hayoti, qadr-qimmati, erkinliklari bilan bogʻliq tushunchalar Sharq va Gʻarb tafakkur olamida yuzaga kelgan qarashlarning oʻzaro uygʻunlashib, bir-birini toʻldirishi va boyitishi natijasida shakllangan.

Dissertatsiyada davlat va jamiyat munosabatlari tizimida inson qadri asosiy mezon sifatida namoyon boʻlishi ta'kidlangan. Zamonaviy ijtimoiy falsafada esa inson qadri ijtimoiy adolat, huquqiy tenglik va farovonlik bilan chambarchas bogʻliq holda talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat — ijtimoiy tuzilma sifatida inson huquqlari, erkinligi va manfaatlarini kafolatlovchi institutdir, jamiyat esa ularni amaliy hayotga tadbiq etadigan, boyitadigan va nazorat qiladigan madaniy muhit sifatida qaraladi. Davlatning vazifasi — inson qadrini kafolatlovchi huquqiy, iqtisodiy va siyosiy mexanizmlarni ishlab chiqish boʻlsa, jamiyatning vazifasi — inson qadrini tarbiya, ma'naviy hayot, ijtimoiy institutlar orqali roʻyobga chiqarishdir<sup>25</sup>. Bu ikki tizimning uygʻunligi natijasida "ijtimoiy hamkorlik" modeli yuzaga keladi. Zamonaviy konsepsiyalardan biri boʻlgan "ijtimoiy davlat" nazariyasi ham aynan davlatning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy choralari inson

 $^{25}$  Абдурахмонов А. Саодатга эдтувчи билим. – Тошкент: "Мовароуннахр", 2003. – Б. 432.

qadrini ta'minlashi shartligini ta'kidlaydi<sup>26</sup>. Jamiyat esa fuqarolik institutlari, OAV, NNTlar va madaniy-ma'rifiy maydon orqali davlatni nazorat qiladi va unga qoʻshimcha ma'naviy kuch boʻlib xizmat qiladi. Bu tizimda inson qadri omili huquqiy — inson huquqlari va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishida, ijtimoiy — ijtimoiy adolat, tenglik va farovonlikni ta'minlaydigan siyosatda, ma'naviy — inson shaxs sifatida qadrlanishi, uning ornomusi, bilim va ma'naviyatiga e'tiborda, siyosiy — fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishi, fikr bildirish erkinligida namoyon boʻladi.

Davlat va jamiyat munosabatlari tizimini inson qadri asosida tashkil etish – zamonaviy taraqqiyotning ustuvor shartidir. Agar davlat huquqiy kafolatlar yaratsa, jamiyat ma'naviy muhitni boyitsa, inson qadri hayotiy kuchga aylanadi. Bu esa barqarorlik, ijtimoiy adolat va demokratik taraqqiyotning asosiy kafolatidir.

Tadqiqotchi fikricha, globallashuvning salbiy tomoni insonni faqat iste'molchiga aylantiradi. Bunda baxt-saodat moddiy farovonlik bilan belgilanadi. Yashashdan maqsad hayotdan eng yuqori darajada lazzatlanishdan iborat boʻlib qoladi. Ruhiy-ma'naviy qadriyatlar, ezgulik, savob, begʻaraz yordam koʻrsatish kabi oliy tushunchalar unutiladi. Insonlararo munosabatlar faqat foyda va zarar qonuni asosida ishlaydi. Koʻngilxushliklarning koʻz koʻrib, quloq eshitmagan turlari yuzaga keladi. Yurtning ertangi kuni, taraqqiyoti yoshlar zimmasidadir. Hozirgi vaqtda yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifa boʻlib kelmoqda. Yurtboshimiz aytganlaridek: "Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot turli xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan gʻarazli intilishlar, mafkuraviy tahdidlar tobora kuchayib borayotgani barchani yanada hushyor va ogoh boʻlishga undaydi"<sup>27</sup>.

Dissertatsiyada insonning qadr-qimmati avvalo, uning tabiiy yashash huquqida namoyon bo'lishi asoslab berilgan. Bu - eng ulug' va muqaddas qadriyatlardan biridir. Yurtimizda kechayotgan serqirra jarayonlar mohiyatini oʻzida mujassamlashtirgan. Ushbu maqsad Uchinchi Renessans yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa boʻlishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzuro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga Mamlakatimizda soʻnggi yillarda ayollar masalasida jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, ayollarimiz uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, yoshlarning o'z bilim va salohiyatlarini to'laqonli namoyon etishini ta'minlovchi tizim yaratildi. Inson qadri – Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy mezoni etib belgilandi. Inson qadri ustuvor tamoyil sifatida:

- ta'lim tizimini transformatsiya qilishda;
- sogʻliqni saqlashda inson qadrini ta'minlashda;
- ijtimoiy tenglik va adolatni kuchaytirishda;
- sud-huquq tizimini isloh qilish;

\_

Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 1-kitob. – Toshkent: "Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2023. – B.445.
 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi https://president.uz/uz/lists/view/5774

- innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot kabi sohalarda namoyon boʻladi.

Agar inson qadri davlat siyosatining markazida boʻlsa, xalqaro indekslarda Oʻzbekiston yuqori oʻrinlarni egallaydi, jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlik mustahkamlanadi. Islohotlar sustlashsa, inson qadriga oid gʻoyalar faqat deklarativ qolib, korrupsiya va tengsizlik kuchaysa, xalqaro reytinglarda pasayish kuzatiladi. Bugungi dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yoshlar tarbiyasiga yanada katta e'tibor berishni talab etmoqda. Xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning axloqi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir koʻrsatadigan omillar asosan quyidagilardir:

Birinchidan, xorij matbuoti xabarlariga koʻra, hozir Gʻarb davlatlari televizion dasturlari va filmlari jahon media bozorining toʻrtdan uch qismini egallagan. Ularning tushunarsiz musiqasi, ma'nosiz hamda gʻayriinsoniy harakatlardan iborat qoʻshiqlari, qiziqishi, ovqatlanish odati, hatto kiyinishiga butun dunyo taqlid qilayotgani bois, bunday jarayonlar ta'siridan oʻz vaqtida yoshlarni himoya qilmasak, xalqimiz madaniyati, ma'naviyati va milliy xususiyatlariga zarar yetadi.

*Ikkinchidan*, hozirgi vaqtda, Gʻarb madaniyatining ayrim vakillari axloqsizlikni madaniyat deb bilishi va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti, deb qarashi bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila mustahkamligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan bir paytda farzand tarbiyasiga katta e'tibor berish dolzarb vazifa boʻlishi kerak.

Uchinchidan, bugun ayrim Gʻarb davlatlarida yoshlar ma'naviyati tanazzulga uchrab, oʻzining salbiy natijalarini berayotgani ma'lum. Gʻarb turmush tarzining bunday salbiy jihatlari ba'zi gʻarb ommaviy axborot vositalari orqali targʻib qilinayotgani achinarli holdir. Garchi bunday holatlar boshqa koʻp mamlakatlarda kuzatilmagan boʻlsa-da, bu hol xotirjamlikka berilishga asos boʻlmaydi. Oʻz vaqtida yoshlar qalbida bunday xunuk ishlarga nisbatan nafrat tuygʻusini shakllantirish lozim.

Har bir davlat oʻz milliy an'analari, madaniy merosi va ma'naviy asoslariga tayanadi. Masalan, Oʻzbekiston sharqona bagʻrikenglik, hurfikrlilik va insonparvarlik gʻoyalariga asoslangan milliy modelni ilgari suradi. Ikkinchi tomondan, global standartlardan orqada qolmaslik uchun xalqaro indikatorlar va mezonlar bilan uygʻunlikka e'tibor qaratiladi. Shu orqali milliy strategiya inson qadrini yuksaltirishda ham milliy, ham xalqaro e'tirofga ega boʻlgan muvozanatli yoʻlni belgilab beradi. Inson qadri va strategik taraqqiyotning uygʻunligi shuni anglatadiki, inson salohiyatini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar (ta'lim, sogʻliqni saqlash, innovatsiya, ijtimoiy infratuzilmalarga sarmoya) kelgusida davlatning iqtisodiy kuch-qudrati va barqarorligini ta'minlaydi. Demak, inson qadri strategik taraqqiyotning nafaqat maqsadi, balki uning asosiy mexanizmi hamdir.

Dissertant fikricha, inson qadrini yuksaltirishning istiqbollari, avvalo, shaxsning ma'naviy va ijtimoiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uning yaratuvchanlik va ijodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash, inson kapitaliga sarmoya yo'naltirish, jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayon postindustrial jamiyatda insonning roli,

bilim va innovatsiyalarga asoslangan taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida qayta baholanishini taqozo etadi. Inson qadrini yuksaltirish istiqbollari quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

- 1. Iqtisodiy sohada inson kapitaliga sarmoyani koʻpaytirish, yangi ish oʻrinlari yaratish, mehnat bozorini erkin va samarali tashkil etish, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali fuqarolarning iqtisodiy salohiyatini oshirish.
- 2. Ijtimoiy sohada ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, madaniy-ma'rifiy merosdan samarali foydalanish.
- 3. Siyosiy sohada demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini qoʻllab-quvvatlash.
- 4. Ma'naviy-ma'rifiy sohada yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, go'zal xulq va mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash, ma'naviy sog'lom muhitni kuchaytirish.
- 5. Xalqaro hamkorlikda inson huquqlari boʻyicha xalqaro standartlarga mos siyosat yuritish, global tahdidlarga javob beradigan milliy dasturlarni ishlab chiqish, tashqi siyosiy aloqalarda inson qadrini ustuvor qiymat sifatida ilgari surish.

Shu tariqa, Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini yuksaltirish istiqbollari nafaqat milliy taraqqiyot dasturlari, balki global sivilizatsiya jarayonlari bilan uygʻun holda rivojlanmoqda. Bu jarayonda davlat va jamiyatning umumiy mas'uliyati, fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, inson qadrini yuksaltirishning istiqbollari — bu barqaror taraqqiyotning ma'naviy va amaliy asosi, milliy va xalqaro hamjihatlik mezoni, shaxs va jamiyatning uygʻun rivojlanishiga xizmat qiladigan strategik maqsad sifatida namoyon boʻlmoqda.

Dissertant mulohazalariga koʻra, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda davlat faqat tartib va qonuniylikni ta'minlovchi emas, balki inson qadrini kafolatlovchi mexanizm sifatida ham koʻriladi. Jamiyat esa, oʻz navbatida, ma'naviy va madaniy muhitni vujudga keltirib, inson shaxsini ma'naviy yuksalishga yoʻnaltiradi. Bunda inson qadri jamiyatning ma'naviy-axloqiy mezoni, davlat siyosatining chegarasini belgilab beruvchi chuqur falsafiy omilga aylanadi. Shuning uchun ham davlat tomonidan qabul qilinadigan har bir qonun, har bir qaror, har bir institut inson qadriga qanchalik xizmat qilayotgani nuqtayi nazaridan baholanmogʻi lozim. Shu ma'noda, "Yangi Oʻzbekiston" modelini tahlil qilar ekanmiz, uning markazida inson qadri turishi — bu nafaqat siyosiy-huquqiy islohotlar, balki falsafiy konsept sifatida davlat va jamiyat uygʻunligining yangi bosqichga koʻtarilganini koʻrsatadi. Natijada, davlat va jamiyatning har bir munosabatida inson qadri mezon boʻlib xizmat qiladigan uygʻun tizim shakllanadi.

Har qanday jamiyatdagi yangilanish jarayonlari, xususan, Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot bosqichlari, muqarrar ravishda uning qadriyatlar tizimida oʻz aksini topadi. Qadriyatlar transformasiyasi nafaqat ijtimoiy va huquqiy me'yorlarning oʻzgarishini, balki inson qadri haqidagi tasavvurlar chuqurlashib, uning sha'ni, erkinligi va ma'naviy salohiyatini yanada ulugʻlash jarayonini ham anglatadi. Zero,

qadriyatlar oʻzgarishining haqiqiy mezoni — insonning jamiyatdagi oʻrni va uning qadrini nechogʻlik e'zozlash bilan belgilanadi. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti qalb va ruhning yuksakligi bilan boshlanadi, chunki ma'naviy kuch har qanday rivojlanishning poydevori va natijasidir. Inson qadrini ulugʻlash esa davlatning kuchini, jamiyatning uygʻunligini va kelajak avlodning adolatli hayotini ta'minlaydigan eng buyuk poydevordir.

#### **XULOSA**

Inson qadri tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida turli xil qarashlarda turlicha talqin qilingan. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish masalasi alohida diqqat markaziga olinib, uning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Shu boisdan, amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy xulosalarga kelingan:

- 1. Inson qadri fenomenini tadqiq etish asosida Sharq va Gʻarb mutafakkirlari, Ibn Sino, Forobiy, Navoiy, Konfutsiy, Arastu va Kant kabi allomalar insonning ma'naviy qiyofasi, axloqiy burchi va qadr-qimmatini jamiyatning ma'naviy asosi sifatida belgilagani namoyon boʻladi. Ikkinchidan, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy paradigmalar (antropologik, aksiologik, ekzistensial, madaniy-falsafiy va huquqiy yondashuvlar) inson qadrini anglashda ilmiy metodologik zamin sifatida inson huquqlari, erkinligi va ijtimoiy maqomini belgilovchi umuminsoniy mezonlarni ilgari suradi. Uchinchidan, inson qadri fenomenini ijtimoiy hayotning butunlikni ta'minlovchi markaziy kategoriya boʻlib, ma'naviy-axloqiy, huquqiy va ijtimoiy elementlarni oʻz ichiga oladi.
- 2. Inson qadri jamiyat hayotidagi eng ustuvor ma'naviy va ijtimoiy kategoriyalardan biridir. U shaxsning biologik mavjudligi bilan cheklanmay, balki uning aqliy, ma'naviy, huquqiy va ijtimoiy qimmati bilan ham belgilanadi. Inson qadrining ijtimoiy-falsafiy mohiyati shaxs va jamiyat oʻrtasidagi uygʻunlikda, adolat va tenglik mezonlarida, inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishida namoyon boʻladi. Shu bilan birga, inson qadri global ma'noga ega boʻlsa-da, har bir millatning ma'naviy merosi va madaniy an'analari orqali milliy xususiyat kasb etadi. Demak, inson qadrini anglash va ta'minlash faqat ma'naviy vazifa emas, balki ijtimoiy barqarorlik, demokratik taraqqiyot va davlat siyosatining asosiy mezonidir.
- 3. Inson qadri masalasi turli falsafiy maktab va sivilizatsion yondashuvlarda turlicha talqin etilgan boʻlsa-da, ularning umumiy maqsadi inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan. Sharq falsafasida inson qadri ma'naviyat va axloq bilan chambarchas bogʻlangan holda izohlangan. Insonning aqli, ma'naviyati va adolatga intilishi uning qadr-qimmati mezoni ekani ta'kidlangan. Gʻarb falsafasida esa inson qadri koʻproq huquqiy va ratsional asosda talqin qilingan. Inson qadrini insonning aql va iroda sohibi ekanligi bilan bogʻlab, uni universal qadriyat sifatida asoslab berilgan. Zamonaviy paradigmalarda inson qadri demokratik qadriyatlar, inson taraqqiyoti indeksi kabi mezonlar bilan yanada ravshanlashadi. Bunda inson qadrining rivojlanish, adolat va erkinlik bilan uzviy bogʻliqligi ilmiy asoslab

beriladi. Ushbu yondashuvlarning uygʻun tahlili inson qadrini ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida tizimli anglash imkonini beradi.

